

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda jismoniy shaxslarga ko‘chmas mulk va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar uchun eskrou hisobvarag‘i ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha
OMMAVIY OFERTA**

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank) jismoniy shaxsga (keyingi o‘rinlarda – Mijoz) ko‘chmas mulk va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar uchun ochiladigan eskrou hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-369, 771-789-moddalariga muvofiq ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – Oferta) tuzishni taklif qiladi.

Mijoz bankning taklif etgan ofertasini harakatlari orqali akseptlashi, u tomonidan oferta tuzishga rozi bo‘lganligini hamda oferta talablarini e‘tirozsiz to‘liq qabul qilganligini bildiradi.

Oferta bilan mijoz bankning www.brb.uz veb-sayti orqali tanishishi va yuklab olishi mumkin.

1. Asosiy tushunchalar

1.1. Ofertada quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

Eskrou agenti – eskrou hisobvaraqlarini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq amaliyotlarni bajaruvchi bank;

Deponent - eskrou bitimida aktivlarni (pul, hujjat yoki mulkni) vaqtincha saqlash uchun eskrou agentiga topshiruvchi shaxs (xaridor);

Benefitsiar - eskrou bitimida barcha shartlar bajarilgandan so‘ng, aktivlarni (pul, mulk yoki hujjatlarni) qabul qilib oluvchi shaxs (sotuvchi);

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini, ID karta, 16 yoshga to‘lmagan fuqarolarning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi, yangi namunadagi milliy haydovchilik guvohnomasi, harbiy xizmatchilarning harbiy qismlari va harbiy muassasalari qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalari yoki harbiy biletleri (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno), chet el fuqarolarning pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolar tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartočkasi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi, my.gov platformasi orqali taqdim etilgan elektron shakldagi shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar;

Aksept – ofertaning to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishi. Ofertani akseptlash shartnoma tuzilganligini vujudga keltiradi va huquqiy ahamiyatga ega bo‘ladi;

Oferta (ommaviy oferta) – jismoniy shaxslarga yuborilgan, ko‘chmas mulk va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar uchun ochiladigan eskrou hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq asosiy shartlarini o‘z ichiga olgan, taklifni kiritgan shaxsning o‘zini taklif yo‘llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif

2. Shartnoma predmeti

2.1. Mazkur oferta shartnomasiga asosan Bank Deponentga (Xaridor) ko'chmas mulk yoki transport vositasining oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun

maxsus Eskrou hisobvarag'i ochadi.

2.2. Eskrou agenti sifatida Bank ushbu hisobvaraqa kirim qilingan mablag'larni blok holatida saqlaydi va notarial shartnoma tasdiqlanganidan so'ng mablag'larni Benefitsiar (Sotuvchi) hisobvarag'iga o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

3. Eskrou hisobvarag'ini ochish va yuritish tartibi

3.1. Hisobvaraqa Deponent arizasi asosida ochiladi.

3.2. Bir oldi-sotdi shartnomasi uchun faqat bitta eskrou hisobvarag'i ochiladi.

3.3. Hisobvaraqa quyidagi shakllarda yuritilishi mumkin:

- an'anaviy bank hisobvarag'i;
- karta hisobvarag'i;
- elektron hamyon (bank tizimi doirasida).

4. Pul mablag'larini kiritish tartibi

4.1. Deponent shartnoma bo'yicha kelishilgan mablag'larni eskrou hisobvarag'iga kiritadi.

4.2. Mablag'lar quyidagi manbalardan kiritilishi mumkin:

- shaxsiy mablag'lar;
- kredit mablag'lari;
- uchinchi shaxs mablag'lari (vakolat asosida).

4.3. Quyidagi holatlarda qisman mablag' kiritishga ruxsat etiladi:

- bo'nak to'lovi;
- bosqichma-bosqich moliyalashtirish.

4.4. Bank mablag' tushganligi haqida elektron axborot tizimida ma'lumot shakllantiradi.

5. Mablag'larni o'tkazish va qaytarish tartibi

5.1. Bank "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — Tizim) orqali oldi-sotdi shartnomasi tasdiqlanganligi haqida elektron ma'lumot olgan zahoti (agar ma'lumot ish kuni tugagandan keyin kelib tushsa, keyingi ish kunida) mablag'larni Benefitsiar hisobvarag'iga o'tkazadi.

5.2. Benefitsiarning so'roviga ko'ra, uning hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar Bank tomonidan naqd shaklda taqdim etilishi mumkin.

5.3. Agar notarial shartnoma tasdiqlanmanmasa yoki hisobvaraqa ochilganiga (1) bir kalendar yili ichida tizimdan tasdiqnoma kelmasa hamda bankka ma'lumotlar yuborilmagan bo'lsa, xaridor yoki uning vakilining yozma/elektron so'roviga asosan tegishli eskrou hisobvarag'idagi pul mablag'lari qaytarib beriladi.

6. Bank xizmat haqi (komissiya)

6.1. Eskrou hisobvarag'ini ochish va yuritish uchun Deponent bank tarifida belgilangan miqdorda vositachilik haqi to'laydi.

6.2. Xizmat haqi Eskrou hisobvarag'idagi asosiy summadan alohida, uni ochish vaqtida to'lanadi.

6.3. Deponent (xaridor) va benefitsiar (sotuvchi) hisobvaragʻlari bitta bankda boʻlganda bir marta haq undiriladi, agar bankda deponent (xaridor) va benefitsiar (sotuvchi)dan birining hisobvaragʻi mavjud boʻlsa, bank tarifiga asosan, undirilishi kerak boʻlgan summaning yarmidan oshmagan miqdorda komissiya undiriladi.

6.4. Bir bank doirasida eskrou hisobvaragʻiga xizmat koʻrsatish orqali benefitsiar (sotuvchi) hisobvaragʻiga kelib tushgan mablagʻni chiqim qilishda bank komissiyasi undirilmaydi.

6.5. Koʻchmas mulk yoki avtotransport vositasini oldi-sotdi bitimi bekor qilingan yoki amalga oshmagan taqdirda, Bank tomonidan koʻrsatilgan eskrou xizmati (hisobvara q ochish va saqlash) uchun olingan komissiya qaytarilmaydi.

6.6. Koʻchmas mulk yoki avtotransport vositasini oldi-sotdi shartnomasi bekor qilingan yoki amalga oshmagan taqdirda, eskrou hisobvara qdagi pul mablagʻlarini qaytarish (naqd pulsiz kirim qilingan mablagʻlarni naqd pulda berishda bank tariflarida koʻrsatilgan miqdorda komission daromad undiriladi) uchun komissiya undirilmaydi.

7. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari

7.1. Bank huquqlari:

7.1.1. Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, bankning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda deponentga eskrou hisobvaragʻini ochishni rad etish.

7.1.2. Oʻzbekistonning jinoiy yoʻl bilan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirgʻin qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligiga muvofiq hollarda, eskrou hisobvaragʻi boʻyicha operatsiyalarni (hisobvaragʻga tushgan mablagʻlarni kirim qilish operatsiyalaridan tashqari) vaqtincha toʻxtatib turish.

Bank mazkur choralar qoʻllanilganligi toʻgʻrisida deponent va benefitsiarni ularga xabar yetib borishini va uning Bankdan kelganligini aniqlash imkonini beradigan har qanday usulda, jumladan masofaviy bank xizmatlari tizimi orqali xabardor qiladi.

7.1.3. Oʻzbekiston qonunchiligi talablariga muvofiq, shu jumladan valyuta tartibga solish va nazorat, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, terrorizmni moliyalashtirish, xorijiy fuqarolar bilan moliyaviy operatsiyalar amalga oshirish sohalarida, shuningdek bankning eskrou-agent funksiyalarini bajarishi uchun zarur boʻlgan hujjatlar va maʼlumotlarni Deponentdan talab qilish.

7.1.4. Deponent va benefitsiar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning nusxalarini saqlash.

7.1.5. Bank tomonidan xato tarzda kirim qilingan pul mablagʻlarini eskrou hisobvaragʻidan yechib olish uchun talab qoʻyish.

7.2. Bank majburiyatlari:

7.2.1. Deponent tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etilgan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay deponent nomiga eskrou hisobvaragʻini ochish:

- Deponentning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (yoki ishonchli vakil hujjatlari);
- Benefitsiarning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (yoki ishonchli vakil hujjatlari).

7.2.2. Deponentdan tushgan pul mablagʻlarini ushbu shartnoma doirasida eskrou hisobvaragʻiga kirim qilish.

7.2.3. Eskrou hisobvaragʻiga kirim qilingan pul mablagʻlarini ular hisobga oʻtkazilgan paytdan boshlab benefitsiarga oʻtkazilguniga qadar yoki ushbu shartnomaning 5.3.-bandiga muvofiq deponentga qaytarilguniga qadar blokirovka qilish va saqlanishini taʼminlash.

7.2.4. Deponentning talabiga ko'ra, eskrou hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar va qoldiq mablag'lar haqida, jumladan deponirlanadigan summa miqdori va uning hisobvarag'ga tushgan aniq sanasi haqida ma'lumotlarni komissiya haqi undirmasdan taqdim etish.

7.2.5. Taqdim etilgan hujjatlarni formal belgilari bo'yicha tekshirishni amalga oshirish.

7.2.6. Hujjatlar belgilangan talablarga mos kelgan va ushbu shartnomaning 5-bo'limida nazarda tutilgan shartlar va asoslar yuzaga kelgan taqdirda deponentning qo'shimcha topshirig'i va roziligisiz deponirlanadigan summani benefitsiarga o'tkazish.

7.2.7. Eskrou hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar sir saqlanishini va deponent haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlash. bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar deponentga (uning ishonchli vakiliga) va benefitsiarga (uning ishonchli vakiliga) taqdim etilishi mumkin.

7.2.8. Bank hisobvaraqni ochgan kundan boshlab uning yuritilishi uchun javobgar hisoblanadi.

7.3. Deponent huquqlari:

7.3.1. Deponirlanadigan summani shakllantirish maqsadida eskrou hisobvarag'iga pul mablag'larini shartnomada belgilangan muddat doirasida bir martalik to'lov yoki qism-qism to'lovlar orqali kiritish.

7.3.2. Ushbu shartnomaning 5.3.-bandiga muvofiq Deponirlanadigan summani qaytarishni bankdan talab qilish.

7.3.3. Eskrou hisobvarag'i bo'yicha ma'lumotlarni, jumladan hisobvarag'dan ko'chirmalarni bankdan olish.

7.4. Deponent majburiyatlari:

7.4.1. Ushbu shartnomaga muvofiq belgilangan muddatlarda pul mablag'larining tushishini ta'minlash.

7.4.2. Bank tomonidan belgilangan shaklda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik taqdim etish.

7.4.3. Eskrou hisobvarag'ini ochishda bankka taqdim etilgan hujjatlarda, pochta rekvizitlarida (shu jumladan ro'yxatdan o'tish manzili, yashash joyi), familiyasi va (yoki) ismi va (yoki) otasining ismida, telefon raqamlarida, ishonchli vakillar rekvizitlarida, shuningdek ishonchli vakillar tarkibida yuz bergan har qanday o'zgarishlar to'g'risida bankni zudlik bilan xabardor qilish.

7.4.4. Bank xizmatlari uchun bankda amalda bo'lgan tariflarga muvofiq to'lovlarni amalga oshirish.

7.4.5. Bankning talabiga binoan, zarur bo'lgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

7.4.6. Ushbu bilan bankka eskrou hisobvarag'idan bank tomonidan xato tarzda kirim qilingan pul mablag'larini yechib olish bo'yicha talablarini (shu jumladan to'lov talablarini) qo'shimcha roziliksiz bajarishga oldindan aksept (rozilik) beradi.

8. Tomonlarning javobgarligi

8.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

8.2. Pul mablag'larini eskrou hisobvarag'iga o'z vaqtida kirim qilinmaganligi yoki asossiz ravishda yechib olinganligi hollarida bank amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

8.3. Bank deponent va benefitsiarning majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanmaydi.

8.4. Deponent va benefitsiar o'z harakatlarining noqonuniyligi yoki taqdim etilgan hujjatlarning haqiqatga to'g'ri kelmasligi natijasida Bankka va/yoki uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni to'liq qoplash majburiyatini (solidar javobgarlik asosida) o'z zimmasiga oladi.

8.5. Deponent yoki benefitsiarning ushbu shartnoma shartlariga muvofiq pul mablag'larini olish uchun o'z vaqtida murojaat qilmaganligi uchun bank javobgar emas.

8.6. Bank eskrou hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish tartibi va grafigini belgilamaydi va nazorat qilmaydi.

9. Korrupsiyaga qarshi shart

9.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, direktorlar, mansabdor shaxslar, xodimlar, vakillar, subpudratchilar va agentlar bevosita yoki bilvosita noqonuniy manfaat olish maqsadida har qanday shaxslarga pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklarni bermaydi, taklif qilmaydi va bunday to'lovlarga yo'l qo'ymaydi.

9.2. Agar Tomonlardan birida ushbu bo'lim qoidalari buzilgan yoki buzilishi mumkin degan shubha paydo bo'lsa, u holda mazkur Tomon tasdiqlovchi ma'lumotlar olingunga qadar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini to'xtatib turish huquqiga ega. Bunday tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 14 kalendar kuni ichida taqdim etilishi lozim.

9.3. Ushbu bo'lim talablarini buzgan yoki belgilangan muddatda tasdiqlovchi ma'lumotlarni taqdim etmagan Tomonga nisbatan boshqa Tomon Shartnomani bir tomonlama tartibda to'liq yoki qisman bekor qilish huquqiga ega.

10. Fors-major va nizolarni hal etish

10.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu vaziyat shartnoma tuzilgandan keyin Taraflar oldindan ko'ra olmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etish mumkin bo'lmagan favqulodda tuzdagi hodisalar (tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar va boshqalar) natijasida vujudga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini hisoblansa yoki davlat axborot tizimlaridagi ("Notarius" AAT) texnik nosozliklar tufayli majburiyatlar kechikkani uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

10.2. Mazkur shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan nizolar muzokaralar yo'li bilan, kelishuvga erishilmasa — Bank joylashgan hududdagi tegishli sudda ko'rib chiqiladi.

10.3. Bank taqdim etilgan hujjatlarning faqat tashqi belgilariga qarab ularning haqiqiylikini tekshiradi va bitim obyekti (mulk)ning holati yoki yashirin nuqsonlari uchun javobgar emas.

11. Shartnoma(ommaviy oferta)ni amal qilish muddati, uni bekor qilish tartibi, boshqa shartlar

11.1. Mazkur shartnoma (ommaviy oferta) nomuayyan muddatga tuzilgan, taraflar majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amalda bo'ladi.

11.2. Mazkur ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547 sonli "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq, Mijozga doir har qanday, shu jumladan, avtomatlashtirilgan ma'lumotlarga ishlov berish va saqlash, shuningdek, Mijozga doir ma'lumotlarini yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, foydalanish, berish, tarqatish,

uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish, shuningdek ushbu ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish uchun Shaxsga doir ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga berilishiga o‘z roziligini beradi.

11.3. Shartnoma (ommaviy oferta) taraflardan birining tashabbusi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

11.4. Ushbu shartnoma (ommaviy oferta) mijozning talabiga binoan istalgan vaqtda bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha to‘lovlar amalga oshirganidan keyin bekor qilinishi mumkin.

11.5. Shartnomani (ommaviy oferta) bekor qilinishi, eskrou hisobvarag‘ini yopish uchun asos bo‘ladi.

11.6. Hech bir taraf ushbu shartnomaning (ommaviy oferta) qog‘oz ko‘rinishini saqlashga va imzolashga majbur emas. Shartnomaning (ommaviy oferta) amaldagi tahriri Bankning www.brb.uz veb-sayti yoki mobil ilovasidan PDF-fayl ko‘rinishida yuklab olinishi mumkin.

11.7. Mazkur shartnomada (ommaviy oferta) ko‘zda tutilmagan, u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

11.8. Mazkur shartnoma imzolangan va mablag‘lar kirim qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

12. Bankning rekvizitlari

12.1. Joylashgan manzili: Toshkent shahri, A.Navoiy shoh ko‘chasi, 18-A uy;

Soliq to‘lovchining shaxsiy raqami: 206916313;

Litsenziya: 93-sonli, 30.09.2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan;

Veb-sayt: www.brb.uz